



## IMPROVEMENT OF SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT AND FEATURES OF COOPERATION

*Nilufar Niyozova*

*Applicant*

*Namangan State University*

*Namangan, Uzbekistan*

*E-mail: [N\\_iyoziyova@gmail.com](mailto:N_iyoziyova@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** older generation, old age status, third age pedagogy, social, processual life experience, religious knowledge.

**Received:** 20.12.24

**Accepted:** 22.12.24

**Published:** 24.12.24

**Abstract:** This article is a process in which the development and well-being of any society is conditioned by the provision of a social and spiritual environment in it, the development and strengthening of certain values precisely through the values. The continuation of the connection between generations is determined by the effective activity of a person in public life associated with ensuring social and spiritual stability, the level of influence on the social development of society, its place and position in life. The level is directly related to the fact that the force or group that creates conditions for the improvement of the individual is in an impartial and healthy mood.

## IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

*Nilufar Niyozova*

*mustaqil tadqiqotchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Namangan, O'zbekiston*

*E-mail: [N\\_iyoziyova@gmail.com](mailto:N_iyoziyova@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** keksa avlod, keksalikning maqomi, uchinchi yosh pedagogikasi, ijtimoiy, jarayon hayotiy tajribalari, diniy bilim.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola har qanday jamiyatning rivojlanishi va farovonligi undagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning ta'minlanganligi bilan, ma'lum bir qadriyatlarning rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan shartlangan jarayondir, aynan qadriyatlar vositasida

avlodlar o‘rtasidagi muloqot davom etishini shaxsnинг ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlanishi bilan bog‘liq ijtimoiy hayotdagi samarali faoliyati, jamiyatni ijtimoiy taraqqiyotiga ta’sir darajasi, uning hayotdagi o‘rnii va mavqeyi darajasi bevosita shaxs kamolotiga sharoit yaratuvchi kuch yoki guruhning xolis va sog‘lom kayfiyatda ekanligiga bogliqliligi to‘g‘risida bayon etilgan

## УЛУЧШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ И ОСОБЕННОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА

**Нилуфар Ниёзова**

Соискатель

Наманганского государственного университета

Наманган, Узбекистан

E-mail: [N\\_iyozova@gmail.com](mailto:N_iyozova@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** старшее поколение, статус старости, педагогика третьего возраста, социальный, процессный жизненный опыт, религиозные знания.

**Аннотация:** Данная статья представляет собой процесс, в котором развитие и благополучие любого общества обусловлено обеспечением в нем социально-духовной среды, развитием и укреплением определенных ценностей именно через посредство ценностей. Продолжение связи между поколениями определяется эффективной деятельностью человека в общественной жизни, связанной с обеспечением социальной и духовной стабильности, уровнем влияния на социальное развитие общества, его местом и положением в жизни. Уровень прямую связь с тем, что сила или группа, создающая условия для совершенствования личности, находится в беспристрастном и здоровом настроении.

Bugungi bozor munosabatlari asoslari mustahkamlanayotgan bir davrda fuqarolik jamiyatni tobora rivojlanayotgan sharoitda, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarning sifatiy jihatlari takomillashayotgan bir davrda jamiyat a’zolarining faolligini oshirishda sotsial mobillik konsepsiysi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa jamiyatda turli avlod vakillari munosabatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Har qanday jamiyatning rivojlanishi va farovonligi undagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning ta’minlanganligi bilan belgilanadi. Jamiyatda ijtimoiy-axloqiy, milliy va umuminsoniy munosabatlarni sog‘lomlashtirishning bir qancha omillari, uslub va vositalari mavjudki, ularni ilmiy tadqiq qilish va u asosda zaruriy ilmiy xulosalarni qo‘lga kiritish bugungikun fanining

oldida turgan eng katta muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, barcha sohalarda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida jamiyatda demografik holatning transformatsiyalashuvi keksa avlodga nisbatan munosabat mavzusining dolzarblashuviga zamin bo‘lmoqda. Chunki qarilik va keksalik jarayoni inson resurslari taraqqiyoti bilan bog‘liqligini unutmaslik lozim. Shuningdek, jamiyatda ma’lum bir qadriyatlarning rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan shartlangan jarayondir, aynan qadriyatlar vositasida avlodlar o‘rtasidagi muloqot davom etadi, avlodlararo munosabatlarmustahkamlanadi, jamiyatda shaxsnинг kamoloti uchun imkon yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» [1] , degan fikrlari yoshlarni milliy qadriyatlар asosida intellektual, bilimli, barkamol etib tarbiyalashni nazarda tutadi. Zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasini milliy, diniy, ma’naviy qadriyatlarimiz integratsiyalashuvi bilan uyg‘unlikda olib borish lozim.

Qadriyatlар tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, o‘z navbatida, muayyan hayotiy tajribaga ega, hayot murakkabligini yenggan, qiyinchiliklarda chiniqqan keksalar o‘tmish merosi, xalq urf-odatlari va an’analarini yoshlarga o‘rgatgan. Shu bois yoshlar nafaqat ota-onalarining, balki mahalla jamoasining ham nazar- e’tiborda bo‘lishgan. Shu tariqa, bir tomonidan, avlodlararo o‘zaro munosabatlarning uzviyligi ta’mirlansa, ikkinchi tomonidan, yoshlarda milliy qadriyatlар, insoniy fazilatlar shakllanib borishiga erishilgan. Yoshlar ulardan o‘rnak olib, o‘z hayotlari davomida yaxshi nom qoldirishga intilishadi. Ularda hayotga muhabbat, mehnatsevarlik, bunyodkorlik hissi shakllangan. Shaxsning ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minalash bilan bog‘liq ijtimoiy hayotdagi samarali faoliyati, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga ta’sir darajasi, uning hayotdagi o‘rni va mavqeyi darajasi bevosita shaxs kamolotiga sharoit yaratuvchi kuch yoki guruhning xolis va sog‘lom kayfiyatda ekanligiga bog‘liq. Agar bunday kuch yoki guruhlar nosog‘lom, noxolis kayfiyatda bo‘lsa shaxs faoliyati ham, jamiyatdagi ma’naviy muhit ham nosog‘lom bo‘ladi. Bu holat rahbar shaxs uchun o‘ta muhim bo‘lib, uning jamoa bilan munosabatlarida o‘z aksini topishi lozim.

Ijtimoiy barqarorlikning markazida turuvchi asosiy kategoriya – shaxs hisoblanadi, u o‘zining kundalik ijtimoiy faoliyati davomida muayyan ijtimoiy guruhlar, boshqa shaxslar bilan doimiy o‘zaro munosabatda, muloqotda bo‘ladi. Shu jihatdan uning ijtimoiylashuvi, jamiyatda muayyan o‘rinni egallashi, o‘zligini anglashi, imkoniyat va salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi va namoyon etishi, muayyan ijtimoiy mavqeyiga ega bo‘lishi jamiyatdan ajralmagan holda amalga oshadi. Buning uchun esa u muayyan bosqichlarni bosib o‘tishi, ayniqsa, jamiyat a’zolari bilan

til topishishi talab etiladi. Odatda yetakchi yoki ma'lum bir mavqeyiga ega bo'lgan shaxslarning barchasi jamiyatda keksa avlod vakillari, qariyalar, umuman oqsoqollar bilan til topishishga, ular tomonidan tan olinishga, ularning ruxsati va duosini olishga harakat qilishida nafaqat ramziy, balki ijtimoiy-psixologik ma'no bor.

Barqaror ijtimoiy birlikni ta'minlash va avlodlar o'rasidagi muloqotni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan muhim jihat – ijtimoiy tabaqalashuvdir. Jamiyat a'zolarini umumiyl holati bo'yicha o'zaro birlashtiradi va bunday tabaqalashuv bir ijtimoiy birlikni ikkinchisi bilan taqqoslashga imkoniyat yaratadi. Bunda kishilarning jamiyatdagi maqomi (hokimiyat, mulkka egalik, kasb, ma'lumot, etnik birlikka mansublik) muhim ahamiyat kasb etadi.

Qachonki, jamiyatda ijobiy, sog'lom muhit aks etsa, unda keksalar va yosh avlod o'rtasidagi ijobiy muhit yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki, salbiy tendensiyalar yuquvchanlik harakterga ega bo'lib, o'z vaqtida ularning oldi olinmas ekan ko'plab qo'shimcha muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Shu jihatdan shaxs va jamoat axloqi, dunyoqarashi, qadriyati, ma'naviyati bir-biriga ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, yuqorida ta'kidlangan munosabatlar tizimi o'zaro aloqadorligi, ularning yaxlitligi oilaviy munosabatlar madaniyatini ifodalaydi. Oilaviy munosabatlar madaniyati ota-onas, bobo-buvi, er-xotin, farzandlar, qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarini ifodalashi oilaning zaminini tashkil etadi. Oila a'zolari o'rtasidagi huquqiy, axloqiy-estetik, ruhiy munosabatlar esa uning ustqurmasidir. Aynan oilaning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi, yosh avlodning keksa avlod bilan muloqoti va munosabatini ideallashtirishga ta'sir ko'rsatadigan asosiy makon sifatidagi o'rni nihoyatda yuqoridir.

Tarixiy taraqqiyot tahlili shuni ko'rsatadiki, oiladagi bu munosabatlar o'z- o'zidan, ziddiyatlarsiz shakllanmagan. Balki, zamon ehtiyojiga mos holda o'zgarib, kurashlar jarayonida hozirgi holatga kelgan. Hozirgi kunda ham oilaviy munosabatlar tizimida er-xotin, ota-bola, ona-bola, qaynona-kelin, qaynota-kelin va boshqa oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar turli darajada tafovutlidir. Oilaviy munosabatlardagi bu tafovutlarning chuqurlashishi ayrim holatlarda oilaning barbod bo'lishiga olib kelgan. Shuning uchun oilani mustahkamlash maqsadida hamisha oilaviy munosabatlar takomillashtirib keligan.

Oilaviy munosabatning sofligi, uning oiladagi bolalarning xulq-atvoriga, ma'naviy kamolotiga ta'sirini kuchaytirish ko'p hollarda ota-onas o'rtasidagi va ularning bolalar bilan o'zaro munosabatiga bog'liq bo'lgan. Oiladagi kundalik munosabat, bu hayotiy ehtiyoj, bolani ijtimoiy va madaniy hayotga tayyorlashning asosidir. Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlari sof, samimiy, arning xotinga, xotinning erga nisbatan o'zaro hurmati, ularning har qanday murakkab sharoitda ham o'zaro bir-birini tushuna olishi, iffati asosiga qurilsagina, bunday oilada musaffo

ma’naviy muhit vujudga keladi. Otaning onaga, onaning otaga betakallufligi, bir-biriga qo‘pol muomalasi, hayotiy qiyinchiliklarni yengishdagi, bola tarbiyasidagi, oilaning moddiy ta’midotidagi turli fikrlilik shu oiladagi o‘zaro munosabatlarning buzilishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. «O‘zbekiston», 2016. B.146.
2. Doňková O Gerontopedagogika a její edukativní dimenze: Univerzita tomáše bati ve zlíně fakulta humanitních studií institut mezioborových studií Brno.– P. 2.
3. Безрукова В.С. Основы духовной культуры (энциклопедический словарь педагога). Екатеринбург. 2000. 701-937 с.
4. Психолого-педагогический словарь / Сост. Рапацевич Е.С. Минск: Современное слово, 2006. 928 с. С.367.
5. Загвязинский В.И., Емельянова И.Н. Педагогика: учебник для студ. учреждений высш. проф.Образования. М.: 2012. 17 с
6. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 1974. 55-bet.